

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULG'TETI

**5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi 2-kurs 204-
guruh talabasi**

XURRAMOVA DILSO'Zning

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan

KURS ISHI

**Mavzu: SHAXSNING OILA MUHITI VA JAMIYATDA
SHAKLLANISHI**

Ilmiy rahbar:

dots. M.Bozorova

TERMIZ-2016

SHAXSNING OILA MUHITI VA JAMIYATDA SHAKLLANISHI

REJA:

KIRISH

- 1. SHaxs shakllanishida oilaning ma'naviy asoslari mazmuni**
- 2. Shaxsni shakllantirishda oila va maktab hamkorlik ishlarining o'ziga xos xususiyatlari**
- 3. Oila va maktab shaxsni shakllantirishning muhim omili**
- 4. Ijtimoiy muxitning shaxsni rivojlanishiga ta'siri**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" konsepsiyasi yoshlarni istiqloq g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturilamal bo'ldi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda maktab va pedagoglarning asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va Respublika rahbariyatining dasturiy fikrlari mazmunidan kelib chiqqan bo'lishi kerak, ya'ni:

- maktabda bolaga biron-bir kasb-korni egallashi uchun mustahkam poydevor yaratish;
- o'quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug'ullanishlariga yordam berish, ularning bo'sh vaqtlarini tashkil qilish;
- bolalarga ta'lim berishni ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'quv-uslubiy dasturlar asosida tashkil etish, o'quv-tarbiya jarayonlarini jahon andozalariga mos ravishda ta'minlash;
- o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlari tahlilidan, iqtisodiy va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ularni turli soha bo'yicha kasb asoslariga yo'naltirish va ta'limda tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;
- yosh oilalar bilan ishlash, tibbiy tarbiyaviy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy tushunchalar berish uchun maxsus tadbirlarni amalga oshirish;
- o'z hududidagi mahalla jamoalarining faoliyatini tarbiyaviy maqsad yo'lida muvofiqlashtirish;
- tarbiyasi "og'ir", qarovsiz qolgan bolalarning ota-onalari bilan ishlash, oilalarga pedagogik yordam berish;

- bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan oilalarni tegishli idoralar hamkorligida o'rganib, tajribalarini ommalashtirish;

- o'qishni va ishlashni xohlamaydigan, bezorilik yo'lga kirib ketgan o'smirlarni hisobga olib, ularga tegishli tashkilotlar bilan birgalikda zarur choralar ko'rib, ota-onalar yig'inlarida muhokama qilish;

- tarbiya sub'ektlari bo'lmish huquqiy, tibbiy, ijodiy uyushmalar, yoshlar, tabiatni muhofaza qilish va "Ekosan", "Qizil yarim oy", barcha jamg'arma va jamoatchilik markazlari, ommaviy axborot vositalari, inson huquqlari bo'yicha milliy markazlar, kasaba uyushmalari, nodavlat tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalarini, mahalliy boshqaruv idoralarining bola tarbiyasiga bo'lgan mas'uliyat va javobgarligini muvofiqlashtirish.

Kurs ishining obekti shaxsning oila muhiti asosida jamiyatda shakllanishi

Kurs ishining maqsadi maxni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan mustaxkam boglamayturib, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, ota-onalar o'rtasida ta'lim-tarbiyaga oid tashviqot ishlarini kengaytirish ularni maktabning faol yordamchilariga, o'quv-chilarning sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarida har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur.

Kurs ishining vazifasi:

- turar joyda va mahallada olib borilayotgan barcha tarbiyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlari markazi - maktab bo'lishiga erishish;

- o'quvchi-yoshlar, ota-onalar, jamoatchilik bilan huquqiy tarbiyani amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ'ib qilish, aqidaparastlik va milliy taraqqiyotimizga zararli g'oyalarning kirib kelishiga qarshi muvofiqsiz kurashishni tashkil etish;

- ta'lim muassasalari nizomlari asosida o'quvchilarning maktabda joriy qilingan tartibga amal qilishlarini va nizomda belgilangan o'quvchilar libosida ta'lim va tarbiya jarayoniga qatnashishlarini ta'minlash;

- mahallada, xotin-qizlar orasida zamonaviy bilimlarni targ'ib qilish, o'smir yoshlarning dunyoviy bilimlarga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish;

- maktab negizida pedagogik, huquqiy, psixologik, ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi "Ota-onalar universitetlari" faoliyatini tashkil qilish.

1. SHaxs shakllanishida oilaning ma'naviy asoslari mazmuni

SHaxs – muayyan jamiyatning a'zosi bo'lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida ham shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuharoning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning o'zi nima?

Rivojlanish oddiyda murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ta'minlovchi murakkab harakat jarayoni sanaladi. Rivojlanishining manbai qarama-qarashliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. SHuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

CHunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Mustaqil O'zbekiston shart-sharoitlarida oila qadriyatlarining tiklanishi va qarindoshlik munosabatlari o'z umrini tugatgan oila-urug' munosabatlarini abadiylashtirishni emas, balki har bir oilaning iqtisodiy, madaniy, kasb-kor jihatdan ravnaq topishini anglatadi. Oila va oila muammolari hamma vaqt davlatning diqqat-e'tibori va himoyasi ostidadir. 1998 yil «Oila yili», 1999 yil «Ayollar yili», 2001 yil «Ona va bola yili», 2002 yil «Sog'lom avlod yili» shiori ostida o'tganligi buning dalilidir. 2007 yilning «Ijtimoiy himoya yili», 2008 yilning «Yoshlar yili» deb e'lon qilinganligi mohiyat e'tibori bilan jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lmish oilani ijtimoiy muxofaza qilishni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lgan oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishini istardim»¹ -deb alohida ta'kidlagani bejiz emas.

Xalqimizning tarixini ko'zdan kechirsak, oila va vazifalari, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va salmoqli ishlari haqida qimmatli fikrlar aytilgan. Demak, o'zbek oilasi tarixi va milliy oila pedagogikasi tarixi juda qadimiydir.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т., «Маънавият», 57 –бет.

Darhaqiqat, eramizgacha 548-529 yillar orasida o'zbek zaminining birinchi faylasufi, notig'i, shoiri, donishmandi, xalq dahosi hisoblangan Zardusht tomonidan Amudaryo sohillarida yaratilgan «Avesto»da oila munosabatlari bilan bog'liq mantiqiy fikrlar ilgari suriladi. Unda qayd qilinishicha, erkak zurriyot qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsa-yu, ammo uylanmasa, unga tamg'a bosishar yoki beliga zanjir bog'lab yurishga majbur qilishardi. «Avesto»da qarindoshlarning o'zaro oila qurishi man etilgan. Qavm va urug' qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan¹.

Bu misollardan ko'rinib turibdiki, eramizgacha bo'lgan uzoq o'tmishda ham biologik-fiziologik jihatdan sog'lom erkak yohud ayol kishilar oila qurishga majbur bo'lishgani holda ular (insonlar) qavm-urug'ni toza saqlash, milliy qonni (avlod ma'nosida) buzmaslik, nikoh tushmaydigan qarindoshlar o'rtasida oila qurmaslik kabi ahloq-odob normalariga amal qilishgan.

Demak, oila insonlarning tabiiy-biologik-fiziologik, moddiy-iqtisodiy, huquqiy-qonuniy, ma'naviy-axloqiy aloqa-munosabatlari asosiga qurilgan ijtimoiy birlikdan iboratdir. Insonlarning tabiiy biologik-fiziologik munosabati deganda jinsiy aloqa va nasl qoldirish (farzand tug'ish va tarbiyalash)ni moddiy-iqtisodiy munosabatda –uy-ro'zg'orni boshqarish, mulkiy munosabatni, huquqiy –qonuniy munosabat-nikohning qonuniyligini, ma'naviy-axloqiy munosabatda esa er-xotin inoqligi, pokligi, ota-ona bilan farzandlar o'rtasidagi mehr-oqibat, hurmat, burch va shu kabilarni tushunish lozim. Hozirgi kunda yuqorida zikr etilgan oila va uning bilan bevosita bog'liq masalalar qonun yo'li bilan muhofaza qilingan va kafolatlangan. Chunki u jamiyatning ajralmas bir bo'lagidir. Bundan jamiyat va oila dialektik birlikni tashkil qiladi degan mantiqiy xulosa kelib chiqadi. SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida: «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov va hukumatimiz oilani jamiyat negizi sifatida bilib, unga nisbatan g'amxo'rlik qilmoqda, uning moddiy-

¹ Каранг. Ўзбек педагогикаси антологияси. Т., «Ўқитувчи» нашриёти, 1995, 32-35 бетлар.

maishiy ravnaqi uchun butun imkoniyatlarni ishga solmoqda. Jumladan, yurtboshimiz oilaning jamiyatda tutgan o'rnini va ahamiyati to'g'risida shunday deydi: «Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi»¹. Bu o'rnida ilgari surilayotgan pedagogik g'oyaning tub mohiyati oila tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, mustahkamlash va yanada chuqurlashtirish bilan bog'liqdir. Oila tarbiyasi deganda ota-ona, oiladagi katta kishilar, buva va buvilar, aka-opalar va shu kabilar tomonidan bolalarning to'g'ri, milliy axloq-odob normalari asosida tarbiyalashini tushunish lozim. Zotan, bolalarning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi ota-ona, aka-opa va boshqalarning o'zaro muomala-munosabatlar, xulq-atvoriga, tartib-intizomiga bevosita bog'liqdir. Xalkimiz: «Qush uyasida ko'rganini qiladi» deb bejiz aytmagan.

Oila tarbiyasi kabi katta mas'uliyat birinchi navbatda ota va ona zimmasiga tushadi. SHu o'rinda bir narsani alohida uqtirish kerakki, bolalar tarbiyasida asosiy ta'sirchan kuch-qudrat, bu –Onadir. Darhaqiqat ota ko'pchilik oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirish va ta'minlash, qolaversa oilaning xo'jalik ishari bilan band bo'ladi. Bu o'zbek oilalari tarixidan ma'lum bo'lgan haqiqat v ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan an'anadir. SHunga ko'ra bola bilan ko'proq ona birga bo'ladi. Axir, xalqimiz: «Sut bilan kirgan-jon bilan chiqadi» deydi-ku! Tarbiya, ya'ni yuksak axloq-odob aqidalari bola joniga (ruhiga) ko'proq ona suti (tarbiyasi) bilan kiradi.

Oila tarbiyasida hikmat (falsafiy-pedagogik yo'nalishlar) ko'p. Yangi o'tkazilgan inholning to'g'ri yohud egri o'sishi bog'bon mexnati va mahoratiga bog'liqdir. Egri o'sayotgan niholning qaddini rostlab qo'yilmasa, u noto'g'ri rivojlanadi. Yangi tug'ilgan go'dak tarbiyasi bilan shu yosh nihol holati o'rtasida qandaydir tabiiy o'xshashlik mavjud.

Bundan ko'rinib turibdiki, mehnat tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, axloq-odob normalari, Vatan tuyg'usi va vatanparvarlik tarbiyasi, ma'naviy-estetik

¹ Каримов И.А. «Баркамол авлод орзуси» китоби. «Шарқ» нашриёти-матбаа концерни. 1999, 8-бет.

tarbiya, jismoniy tarbiya, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, miliy g'urur va iftixor tarbiyasi, ijtimoiy tarbiya va shu kabilar oiladan boshlanadi. SHu zikr qilingan pedagogik-falsafiy tushunchalar oila rahbarlarining dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqdir. Deylik, dehqon dunyoqarashi uning halol mehnat qilib, dastlab oila to'kinligi va so'ngra xalq farovonligini ta'minlashda ko'rinadi. Uning barcha faoliyati shu olijanob tuyg'u bilan uyg'unlashgan. Bu oilada bola mehnatsevarlik ruhida tarbiyalanadi. Hayot va turmushning hamma nuqta va qirralari mehnat bilan ravshanlashadi. Zotan, mehnatkash inson har sohada o'z yo'lini topa oladi.

Xalq mehnatkash, yuksak axloq-odobli yigitchani ko'rsa, «otangga rahmat», xush qiliqli, go'zal xulq-atvorli, shirinsuhan, muloyim, chevar, pazanda qizni ko'rsa «onangga rahmat» deydi. Bu oila tarbiyasining shirin mevasi tufaylidir.

Yana bir narsani unutmaslik kerakki, bir oilaning ikkinchi bola bilan munosabati ham oila tarbiyasi bilan uyg'unlashib boradi. Boshqacha aytganda, bir oila o'g'il uylantirib, kelin tushiradi. Ikkinchi oila esa qizini chiqarib, kuyolik bo'ladi. Bu quda-andalar oilasi deb aytiladi. Oilalar ichida yangi oilalar vujudga keladi. Avvalroq aytganimizdek, yosh nihollar (kelin va kuyov) taqdiri dastlab ularning o'zlariga, qolaversa ota va ona, qayin ona va qayin ota muomala-munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Bu o'rinda yosh oilalarning mustahkamlanishi uchun ota va ona, qayin ota va qayin ona tadbirkor dehqon kabi tarbiya mahoratiga ega bo'lishlari kerak. Ba'zi hollarda ota-ona yohud qayin ota va qayin onalarning injiqliklari, me'yoridan ortiq qattiqqo'lliklari tufayli yosh oilalar buzilib ketadi. Zotan, ota va ona, qaynота, qayin onalar farzandlarining oilasini, ya'ni yosh nihollar oilasini parvarish qilishni bilsalar va shunga harakat qilmaydi. Oila ichidagi oila ravnaq topardi, mustahkamlanadi.

Umuman olganda, oila va uning mohiyati, oilaning har tomonlama ravnaqi va jipsligini ta'minlash shart-sharoitlari, oila tarbiyasi-milliy iftixor, uning jamiyat negizi ekani, oila ichidagi oila kamolotini ta'minlash singari muammolarni tadqiq etish hamda ularni xalqqa sodda va tushunarli tarzda yetkazish shu kunning dolzarb vazifasidir.

Oila - ijtimoiy, tabiiy omillar asosida shakllangan kichik jamoa sifatida ikki jinsga mansub bo'lgan shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning birga hayot qurib nasl qoldirish, faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki ularni ma'naviy va jismoniy kamol topdirib, hayotga mustaqil qadam qo'yishiga sharoit yaratishdir. SHu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiylikini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor».

Oila asli arabcha so'z bo'lib, “ayolmand, niyozmand”, “er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon” degan ma'noni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida yoshlarda yuksak ma'naviyatni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha keng jamoatchilik, ayniqsa, siyosiy partiyalar oldiga qator vazifalar qo'yilgan. Bu, birinchi navbatda, yoshlarning ma'naviy tarbiyasida oila, mahalla va ta'lim muassasalari, barcha ijtimoiy davlat va nodavlat institutlarining amaliy uyg'un hamkorligiga erishish, ular orasida ma'naviy-g'oyaviy hamjihatlik ruhini yanada mustahkamlash va yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish vazifalaridir.

2. O'quvchilar shaxsini shakllantirishda oila maktabning hamkorlik ishlari mazmuni

Mamlakatimizda bolalar To'g'risida, onalar haqida g'amxo'rlik qilish chinakam davlat ahamiyatiga molik ishdir. "Jamiki yaxshi narsalar-bolalarga" shiori yanada baralla jaranglamoqda. Keyingi yillarda mazkur masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar fikrimizning isbotidir.

Ma'lumki, bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir. Oila a'zolarining ma'naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan mustaxkam boglamayturib, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi. Shu maqsadda ota-onalar o'rtasida ta'lim-tarbiyaga oid tashviqot ishlarini kengaytirish ularni maktabning faol yordamchilariga, o'quv-chilarning sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarida har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur.

Jamiyatning jadal rivojlanishi, faoliyat turlarining tobora murakkablashib borishi shaxs ongiga ko'rsatayotgan ko'rinmas ta'sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Mana shunday sharoitda kishining mavjud bilimi, kasb-hunari, malakalari kamlik qilib qolmoqda. Eng avvalo, insonlarda oilada tarkib topgan did, farosat, aql, odob, emotsional madaniyatga muhtojlik sezilmoqda. Estetik, axloqiy va boshqa tarbiya sifatleri kundalik hayot ehtiyojga aylanib bormoqda. Tabiiyki, bunday sifatlarga oilaviy tarbiya orqali asos solinadi, kamol toptiriladi. To'g'ri, bunda ijtimoiy tarbiyaning o'mini inkor etib bo'lmaydi. Ana shu nuqtai nazardan ularning monolit birligiga, o'zaro hamkorliklariga asoslansak, barkamol inson tarbiyasida muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Oilaviy tarbiya pedagogika fanida murakkab muammolardan biridir. Uning murakkabligi shundaki, har bir oila o'ziga xos ibtidoiy guruh bo'lib, tarbiyada faqat mazkur guruhga xos xususiyatlarga

asoslanadi. Ta'kidlaganimizdek, oilaviy tarbiyani ijtimoiy tarbiya bilan almashtirish bolalar kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yasli, boo'chalarga bormay, faqat oilada o'sgan va voyaga yetgan bolalar maktabga borganlarida o'z tengqurlari ichida ko'p jihatlari bilan ajralib turadi. Oilaning bolalarga moddiy va ma'naviy g'amxo'rligini, ko'rsatayotgan tarbiyasini yasli, boo'cha tarbiyasi bilan yoki, aksincha, yasli, boo'cha tarbiyasini oilaviy tarbiya bilan almashtirib bo'lmaydi. Faqat o'zaro hamkorlik masalani ijobiy hal etish imkoniyatini beradi.

Lekin o'zining xususiyatlari va takrorlanmas ta'siri bilan oila bola tarbiyasida muhim omilliligi qoladi. Amaliyotda kuzatganimizdayoq bolada ota-onasining mehri, erkalashlari asosida ota-onalariga, qarindosh-urulo'lariga bo'lgan issiyotlari shakllanadi. Bolaning otasiga bo'lgan hurmati onaning hurmatini joyiga qo'yishda asos bo'ladi. Onaga bo'lgan mehr-muhabbat oqibat natijada o'z oilasiga, xotini, farzandlariga bo'lgan munosabatlarda o'z aksini topadi.

Ikkinchi tomondan bolalar ham o'z ota-onalariga ta'sir ko'rsatadilar. Oilaviy aloqalarning, oilaviy qiziqish, ma'naviy qoniqish hislarining takomillashiga sabab bo'ladilar.

Ota-onalarning o'ziga va bolalariga bo'lgan talabchanligi, katta va kichiklarning o'zaro munosabatlari, do'stona muhit, ishonch va o'zaro bir-birlarini tushunish oila, maktab va jamoatchilikning bolalar tarbiyasi yuzasidan olib boriladigan muhim omillaridir. Bunday biriikning ruyobga chiqishida, eng avvalo, ota-onalarning siyosiy ongliligi muhim rol o'ynaydi. Chunki ota-onalarning faolligi oilaviy hayotda o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda bolalar o'z ota-onalarining siyosiy va fuqarolik qiyofalariga qarab o'z xulq-atvorlarini tartibga soladilar, jur'atlarini joyiga qo'yadilar.

Bolalar ulo'aya boshlasbi bilanoq o'z ota-onalarining qayerda ishlashlari, jamiyatda tutgan o'rinlari, ularning bilimiga qiziqqa boshlaydilar. Shuning uchun ham ota-onalarning nimalarga qiziqishlarini, kimlar bilan safdosh ekanliklarini bolalar mumkin qadar ertaroq bilganlari ma'qul. Ota-ona qanday ishda bo'lmasin, uni jiddiy, el hurmatiga loyiq bir ish deb biladigan bo'lishi kerak. Bu borada oiladagi tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil etilishi yuzasidan javobgarlik

ma'lum darajada maktabga yuklanadi. Oiladagi hukmronlikning tarbiyaviy jihatdan To'g'ri bo'lishini ta'minlash maktabning muhim vazifalaridan biridir. Oilaviy tarbiyaning mazmunli tashkil etilishiga dastlabki ta'sirni maktab belgilaydi. Maktabgina oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan rahbarlik qila oladi. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishida, ijobiy hal etilishida ota-onalar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaga oid taro'ibotning, roli benihoyadir. Chunki ota-onalarni hozirgi zamon ruhiy-ta'lim-tarbiyaviy bilimlar bilan qurollantirmay turib, oilaviy tarbiyani yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Ommaviy-tarbiyaviy taro'ibotda eng yaxshi oilalar namunasida ta'sir ko'rsatish eng maqbul yo'ldir.

Bola tarbiyasi yuzasidan oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi hozirgi kunimizning dolzarb masalaligi ham mana shundadir. Chunki, *birinchidan*, bola tarbiyasida oila, maktab va jamoatchilik hamkorligining o'zi murakkab jarayon bo'lib, bunda muallimlardan tashqari ishlab chiqarish jamoalari vakillari, yoshlar, kasaba uyushmalari ishtirok etadilar. *Ikkinchidan*, ota-onalar va qarindosh-urulo'lar turli mehnat jamoalarining vakillari bo'lib, ishlab chiqarish va yor-u do'stlarining ma'naviy hayotlaridagi omillarni muhokama qiladilar, ularning hayotga, san'atga, oilaviy majburiyatlarga bo'lgan munosabatlari haqida gapiradilar. Shu sababli ham mana shunday toifa oilalarida tarbiya topayotgan bolalar boshqa ota-onalarning ko'chada, jamoat joylaridagi hayot faoliyatlariga qarab o'z ota-onalariga baho beradilar. To'plangan tajribalarini bo'lsa, maktabdagi o'rtoqlari bilan muhokama qiladilar va hokazo. *Uchinchidan*, o'zbek oilalari, ularning hayot tarzi jumhuriyatimizdagi ulkan ijtimoiy voqealar natijasida sifat jihatidan o'zgarishlarga uchramoqda. Shu sababli hozirgi kunda oilaviy tarbiyada sifat va mazmun jihatidan o'zgarishlar qilish uchun yangi samarador yo'l va usullar qidirilmoqda.

O'zbek oilalarining bolalar tarbiyasi uchun imkoniyat doiralari ancha keng bo'lib, ko'plab oilalarimiz moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan. Ota-onalar eng kamida o'rta ma'lumotli. Bunday holatlar ota-onalarning pedagogika, psixologiya sohasidagi bilimlar bilan qurollanishiga va maktab bilan hamkorlikda bolalar tarbiyasini yaxshilash imkoniyatlarini yaratadi. Ota-onalarning bilim saviyasi, umumiy tarbiyaga oid-madaniyati, ijtimoiy intilishlari va talablari, bolalar

tarbiyasiga nisbatan turlicha munosabatlari, shakllangan hayotiy tajribalari, tarbiya va ijtimoiy taraqqiyot natijasida hosil qilgan ishonch va e'tiqodlari, oiladagi o'ziga xoslik bolalar tarbiyasiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab o'zbek qishloq oilalarida ma'lum darajada (bolalar tarbiyasi yuzasidan jamoatchilik yordami mavjudligiga qaramasdan) tarbiyaviy kuchlarning bir butunligiga erishilmagan, o'zaro hamkorlikni qanday tashkil etish mumkinligi haqida ma'lumot yetarli emas. O'qituvchilar ham sinf ota-onalar majlisining o'tkazilishi maktab va oila hamkorligini ta'minlaydi, deb o'ytashadi. To'g'ri, ota-onalar majlisi ham hamkorlikni ta'minlashning eng muhim omillaridan hisoblanadi, lekin oila, maktab, jamoatchilik hamkorligi uchun, ularni birlashtirish uchun maxsus tashkil etilgan markaz bo'lishi lozim.

Demak, maktab mukammal tashkilot sifatida barcha tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etishi lozim. O'z o'qituvchilar jamoasini uyushtira olgan jamoatchilikni bolalar tarbiyasiga yo'naltira olgan, ularning ota-onalarini yaxshi bilgan maktab ma'muriyatigina tarbiyaviy yutuqlarni qo'lga kirita oladi. Bunday maktablar esa o'z atrofidagi jamoa va davlat xo'jaliklari, otaliqqa olgan korxonalar bilan aloqani mustahkamlab, o'quvchilarning maktabdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etmoqdalar, qarovsiz, tarbiyasi o'ir bolalarni o'z nazoratlariga olmoqdalar. Bunday xayrli ishlarda ko'plab ota-onalar maktab bilan yaqindan aloqada bo'lib o'quvchilar tarbiyasi yuzasidan o'qituvchilar jamoasi bilan bamaslahat ish olib borishmoqda.

Lekin, ko'plab ota-onalar bolalar tarbiyasiga tayyor emasliklari, ularga ta'sir etuvchi turli omillardan bexabarliklari; bola kamolotining murakkab tomonlarini bilmasliklari natijasida oilaviy tarbiyada ko'plab ko'ngilsiz voqealar ham sodir bo'lmoqda. Bunday salbiy omillar o'oil yoki qizlarning maktabdagi ta'lim-tarbiyasigayomon ta'sir ko'rsatmoqda. Voyaga yetmagan yoshlar orasida qonunbuzarliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, hali ham ayrim ota-onalar bolalar tarbiyasi va ularning kelajaklari haqida zamon talabi darajasida tarbiyaviy mas'uliyatni his qilmayaptilar. Ota-onalar bilan suhbatlashish natijasida shu narsa aniqlandiki, ular

farzandlari 15-16 yoshga yetgandagina "o`gim yoki qizim yuqori sinfda o`qimoqda. Kelajakda qayerga yuborsam ekan? Qayerda o`qitsam ekan?" degan fikrga boradilar. Imkoni boricha, tanish-bilish orqali o`zlari uchun ma'qul dargohga o`qishga yoki ishga joylashtirmoqchi bo`ladilar. Ular bolalarining qobiliyatiga ham, qiziqishiga ham, xohishiga ham e'tibor bermaydilar. Bunday holat ota-onalarning tarbiya masalasida aniq maqsad va dasrurlari yo`qligi oqibatida sodir bo`ladi.

O`rni kelganda shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayrim maktab o`qituvchilari orasida o`z ishiga mas'uliyatsizlik bilan muno-sabatda bo`luvchi shaxslar ham yo`q emas. Ularning eng yomon xatolaridan biri tarbiyaga oid barcha kamchiliklarni ota-onalar zimmasiga yuklab qo`yib, o`zlari esa kuzatuvchi bo`lib qolishlaridir.

O`qituvchi ota-onalarning faol yordamisiz bolalarning barkamolligini ta'minlay olmaydi. Bu o`rinda tarbiyachining o`zini tarbiyalash lozimligini ham esdan chiqarmaslik kerak. o`ziga nisbatan talabchan muallim ota-onalar bilan hamkorlikda o`quvchilarda mustaqil fikrlash va harakat qilish, yangilikni sezish, tashabbuskorlik hamda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida ularga qat'iy talablar qo`yish uchun ma'naviy huquqqa ega bo`ladi. Ayrim maktablarida ota-onalarni ma'lum guruhlariga bo`lib majlislarga chaqirish joriy etilmoqda. Masalan, yosh va kam tajribali oilalami alohida, noto`liq oilalarni, ko`p bolali oilalarni alohida-alohida chaqirib, ular bilan ishlash yo`llari belgilanmoqda.

Ba'zan ota-onalar bolalarining "Uy vazifalariga yordam berish kerakmi?" degan savolni berishadi. Bunga daf atan "Ha" yoki-"yo`q" deb javob berish ham noo`rin. Gap shundaki, uyga berilgan topshiriqlar bolalaming mustaqil ishlari bo`lib, ularning fikrlash faolligini ta'minlashni maqsad qilib qo`yadi. o`quvchilarning u yoki bu o`quv materiallari bilan amalda tanishishlari, tegishli xulosa chiqarishlari nazarda tutiladi. Shu sababli uy vazifalarini bolalarining ishtirokisiz o`zlari yechib bermasdan, balki uni yechishda tarbiyaviy rahbarlik qilishlari, fikrlash uchun imkoniyat yaratishlafi lozim. Ba'zan shunday holatlar uchraydiki, ota-onalar bolalarini o`qitayotgan o`qituvchilarni, tarbiyachilarni tanimay-dilar, bilmaydilar. Bolalari bo`sh vaqtlarini qayerda, kim bilan

o`tkazishidan bexabar bo`ladi. Ba'zan esa, o`qituvchilarning talablari, iltimos-istaklariga ters javob beruvchi, teskarisini bajaruvchi ota-onalarni ham uchratish mumkin. Maktabga tez-tez borib tumvchi ota-onalarning faoliyati maqtovg'a sazovordir. Chunki o`qituvchilar bilan bo`lgan uchrashuvlar, bolalari yuzasidan bildirgan fikrlar o`z navbatida ota-onalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, ular bolalari qayerda, kim bilan yuradi, ulaming do`stlari kim va qanday fanlarga qiziqishlarini bilib oladilar, nazorat qilish imkoniyati ortadi.

Maktabni oila bilan bo`lovchi vosita - bu o`quvchilardir. o`quvchilar bilan ishlash, ulaming ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijtimoiy faolliklarini ta'minlash orqali ota-onalarga ta'sir ko`rsatish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu borada maktab va oila aloqasini ta'minlovchi, ota-onalar majlislari, bolalar tarbiyasiga aloqador muammolarni jamoa bo`lib hal etish kabilarning rolini inkor etib boimaydi. Jumladan, "Bolangizning qanday o`qishini bilasizmi?", "Bolalarimiz odobi haqida suhbatlashaylik", "Mustaqil hayot bo`sao`asida" kabi mavzularda olib boriladigan suhbatlar ota-onalarni o`z bolalari haqida, ularning kelajagi haqida qayo`urishlariga sabab bo`ladi.

Majlisda faol ota-onalarning ishtiroki va o`z tajribalarini batafsil bayon etishlari ko`plab ota-onalar oldida turgan murakkab vazifalarning ijobiy hal etilishiga olib keladi. Albatta, buning uchun o`qituvchilar jamoalari, sinf rahbarlari majlis o`tkazish uchun asosli tayyorgarlik ko`rishlari, qachon va qanday holda majlis o`tkazish va undan ko`zlangan maqsad rejalarini mukammal ishlab chiqishlari, to`plangan tajribalarni tahlil qilish, ota-onalardan kimlar so`zga chiqishi haqida kelishib olishlari lozim. Ana shundagina majlisning tarbiyaviy samaradorligi ta'minlanadi.

Ota-onalarning tarbiyaga oid bilimni oshirish uchun jonli, hayotiy mavzularda qiziqarli ma'ruza, suhbatlar tashkil etish tavsiya etiladi. Bunda oilaning o`zaro munosabatlari, oilaviy tarbiyada o`qituvchining tutgan o`mi, ularga ta'sir etish va boshqa sifatlarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Hayotiy bo`lmagan misollar, umumlashtirishlar, quruq ma'ruzalar hech qanday samara bermasligini hamma tushunadi. Maktab va oila hamkorligidagi ishlarda qo`shimcha uslublardan ham foydalanish yaxshi natija beradi. Jumladan, tashkilotchilarning ota-onalarning o`zlari o`z xatti-harakatlarini, xulq-odoblarini tanqidiy baho-lashlari, ma'qullash va

muhokama yuritish metodlami qo`lla-shdagi shaxsiy ta'simi hisobga olish nihoyatda muhimdir. Bunday xatti-harakatlarga doir usullar, odatda, jamoatchilik tomonidan ijobiy baholangan bo`lishi kerak. Chunki kattalar faoliyatining ijobiy yoki salbiy baholanishi ular ko`rsatadigan tarbiyaviy ta'sirning kuchini yo oshiradi, yoki kamaytiradi. Maktablarda ota-onalar bilan ishlashda esga solish, maslahat, taklif, iltimos, talab kabi uslublar ham mavjud bo`lib, ulami o`mi kelganda, o`z vaqtida qo`llash yaxshi samara beradi. Ularni tatbiq etishda nihoyatda nazokatli bo`lish, kishi shaxsini hurmat qilish tavsiya etiladi.

Yuqoridagi mas'uliyatli vazifalarning bajarilishida sinf rahbarlarining tarbiyaviy faoliyatlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Masalan, sinf rahbarlarining har bir oilaga kirib borishi shu oilaga va ota-onalarga hurmat sifatida baholanadi. Sinf rahbarining ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy chora-tadbirlarni belgilashlari, sinf rahbarining o`quvchilar ko`z oldida ota-onalari bilan suhbatlashishlari ularning tarbiyasiga samarali ta'sir ko`rsatadi. Hatto, sinf rahbarining uyga kelishining o`zi ularning qalblarini quvonchga to`ldiradi. Sinf rahbarining ota-onalar bilan suhbatidan keyin o`quvchilar hayotida sezilarli o`zgarishlar yuz beradi, bu ularni xursand qiladi, yanada kuch-o`ayrat sarflashga ilhomlantiradi. Faqat sinf rahbarlari emas, balki fan o`qituvchilarining ham ota-onalar bilan qilayotgan hamkorliklari foydadan holi emas. To`g`ri, hamma sinf rahbarlari yoki fan o`qituvchilari o`quvchilarning uylariga hadeganda borishga imkoniyat topolmaydilar. Bunday paytlarda o`quvchilar kundaliklariga "Bugun o`o`lingiz berilgan savoilarga juda yaxshi javob berdi", "Farhodning odobi yaxshilanmoqda", "Salima dugonalariga o`z xulqi-odobi bilan namuna bo`lmoqda", "Turobjonni odobli qilib tarbiyalayotganingiz uchun sizlarga rahmat" kabi yozuvlarning ham tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kattadir. o`z navbatida, sinf rahbarlari ota-onalar tomonidan bildirilayotgan xabar, tanqidiy fikrlarini vazminlik bilan tinglashlari, muloyimlik bilan eshitishlari va imkoniyat doirasida ijobiy hal etishlari juda muhimdir. Bunday munosabatlarda sinf rahbarlariga ota-onalarni o`z tengqurlaridek do`st tutishlari, "Keling birgalikda o`ylab ko`raylik", "Siz nima deysiz" kabi do`stona savol-javoblar orqali ish tutishlari tavsiya etiladi

3. Oila va maktabda o'quvchilar shaxsini shakllantirish

Aynan shu maskanda o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevariik, vatanparvarlik, inson- parvarlik kabi oliy darajadagi qadriyatlar shakllanadi, avloddan-avlodga yetkaziladi. Shu sifatlar ona suti, oila a'zolari mehri va namunasi bilan bola-xulqi, xatti-harakati mazmuniga singib boradi.

Darhaqiqat, Prezidentimizning «Tafakkur» jumali bosh muharririning savollariga bergan javoblarida «g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin» degan fikriarini oila taitnyasining metodologik asosi sifatida qabul qilish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan «Kadrlar tayyoriash Milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunni ham oila ishlitirokjsiz amalga oshishi mumkin emas. Hayotfting o'zi ta'lim tizimi oldiga yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligida barkamol qilib shakllantirishni har bir ota-ona, pedagog, jamoatchilik oldiga qo'yymoqda. Shuning uchun respub- likamiz fuqarolari oldida turgan endigi vazifa ta'lim-tarbiya tarixini oila davrasida qunt bilan o'rganish, unda olg'a surilgan ilg'or g'oyalardan bahramand bo'lishdir. Chunki o'zbek diyorida dunyo ilm-fan xazinasiga beaded ulush qo'shgan al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ahmad Faig'oniy, al- Forobiy, ibn Sino, az-Zamahshariy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy kabi allomalar zamonlar yashab ijod etganlar. Ular qoldirgan madaniy merosni o'rganish har bir oila a'zosi uchun ham farz, ham qarzdir.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlab aytganlarjdek, «Biz osib kelayqtgan yosh avlod ta'lim- tarbiyasini, ularning zamonaviy ilg'or bilimlarga ega bo'lgan holda ulug' bobokalonlarimiz merosiga munosib bo'lishlarini davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi, deb bilamiz».

Bunda esa inson ulg'ayishida asosiy davr bo'lgan o'smirlikdagi tarbiya hal qiluvchi ahamiyat. kasb etadi. Bu pallada uning ichki dunyosi o'ziga xos xislatlari shakllanadi. Bu davrda ota-ona, ustozlar ular tarbiyasi bilan uzviy ravishda shug'ullanishlari lozim. Ularning salomatligiga ham alohida diqqat-e'tibor zarur. Sbupi ham unutmastlik kerakki, kamolotga eltuvchi yo'l ma'rifet, shunga yarasha gayrat-shijoatdir. Har bir xalq har bir

avlodning barkamollik darajasi pirovard natijada shu xalq istiqbolini, taraqqiyoti ya taqdirini hal etadi.

Ma'naviy va jismoniy barkamol ayloqni tarbiyalash r: faqat milliy ehtiyojgina emas, balki ijtimoiy ahmiyatiga molik masala — ko'p millatli Vatanimizda tug'ilib o'sgan, tomir yoygan barcha qardosh xalqlar uchun birday ezgu murod maqsaddir. Bu nuqtada milliy va umuminsoniy qadriyalar, boy ma'naviy merosimizning eng yaxshi an'ana- lari hamda shakllanib kelayotgan yangi udumlar birlashadi, tarbiyaning qudratli omiiga aylanadi. Xalqimiz irsiyatini boyitish, ma'naviy va jismoniy sogiom avlodni tarbiyalash jarayonida oila, davlat va jamiyatning mushtarak muddaosi bo'lmish komil inson shaxsi — XXI asr odami shakllanadi. Tarixchilarning yozishicha, Temurbek bolalik va yoshlik chog'laridayoq, bugungi kun tiU bilan aytganda, harbiy-sport o'yinlari va mashg'ulotlari bilan jiddiy shug'ullanib, badanini va ruhini chiniqtigan. Agar jismoniy tarbiyani otasiga xizmat qilgan maxsus navkar-murabbiylardan olgan bo'lsa, ruhniy tarbiyani otasining pin bo'lmish Shayx Shamsiddin Kulol dargohida egallagan BolaUgidayoq o'zini buyuk ishlarga hozirlagan Amir Temur farzandlari va nabiralarning taibiyasini ham bir lahza bo'lsada, nazaridan qochirmadi. Ulug' hukmdor o'z o'g'illari va nabiralarga eng avval jangu jadal mashaqqatlariga chidam berishga qodir kuch-quvvat va jasorat, shuningdek, saltanatni boshqarish uchun talab etilgan ilmu donish sohibi bo'lish- larini talab etardi. Amir Temur o'z davrining ma'rifatU kishisi, o'gmishning ma'naviy saboqlaridan yaxshi xabardor inson sifatida sog'lomlik faqat jismoniy kuch-quvvat emas, balki oliyjanob insoniy fazilatlar uygunligiga erishmoq, ekanligini itam yaxshi anglagan. U barloslaming ukig' amiriaridan bo'lmish padari buzrukvori, muarix Sharofiddin Yazdiy ta'biri bilan aytganda, «ulamo va sulaho va mutafakkiriarga mushfiq va meh- ribon» Muhammad Tarag'aydan olgan saboqlarni bir umr unutmadi. Muhammad Tarag'ay o'z farzandini mardlik va farosatlik, qattiqqo'llik va mehr-oqibat ruhida voyaga yetkazdi. Agar Amir Temur buyuk saltanatga asos solgan bo'lsa, bu sharafga mana shu yuksak taibiya oqibatida erishgan.

Sohibqiron farzandlarida uch xislat mujassam bo'lishini istardi. Eng ayvalo, insonparvariik, so'ng mushohadalik va nihoyat, oqibatiik — bosiqlik. Insonparvar odamgina saxiy bo'lishi mumkin. Mushohadali, bosiq odamgina jangu jadalda xatoga yo'l

qo'ymaslikka, ulkan saltanatni boshqarishga qodir. Kimki jasur bo'lsa-yu, insonparvar bo'lmasa, jismonan baquvvat bo'lsa-yu, mushoxadalik bo'lmasa, dono bo'lsa-yu, bosiqlik bo'lmasa, unday odam komil inson bo'lolmaydi, unday odam boshqalarni ham, o'ziniyam halok etadi. Kimki raqibi bilan olishgandayam insonparvarlikni unutmasa, u albatta yengadi. «Siyosatda maslahaat, mulohazakorlik, o'ylab ish qilish kuchidan o'n karra foydaliroqdir», deb ta'kidlaydi ulug' Sohibqiron.

Bobokalonimizning farzandlari va avlodining qanday fazilatlarga ega bo'lish bilan bog'liq istaklarini bilish uchun, avvalo, «Temur tuzuklarini varaqlaylik. Uning dastlabki sahiilaridayeq shunday fikrni uqish mumkin: «Tajribamda ko'riigankim, ishbtiatmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbireiz, loqayd kishilardan yaxshidir*. Bu Mlmatda bobomizning sog'lom va fevnil insotl xususidagi tushunchasi, ya'ni yetuk insoniy fazilat va xususiyatlarga ega insongina mamlakat tayanchi bo'la ofcadi, degari mushohadasi mujassamlashgan <j deb o'ylayman. Boishqaf bir atanda Sohibqiron qai'fyttk, sahcphtdajnlilik, sog'ligu sergakkky ehtiyotkorlik va shijoat sohibi bo'lgan inson har qanday mashaqqatli ishni amalga oshirishga qodir, deb ta'kidlaydi. Sohibqiron bobomiz haibiy sa fari a rga farzandu nabiralarini birga olib ketardi. Bundan ko'zlangan birinchi murodi avlodlari suyagini jangu jadallar, uzoq va mashaqqatli yo'l larda chiniqtirish bo'lsa, ikkinchi maqsadi farzandu nabiralari o'z avlodlari qo'lida tabiyalansa, erka va tantiq bo'lib ulg'ayadilar, degan fikrdan kelib chiqib ularni onalarining ortiqcha mehru-muhabbatlaridan asrash edi. Zero, asalning ko'pi zarar, me'yorda bo'lsa, foydali ekanligi to'g'risida o'tmish donishraandlari ko'p naql etganlar.

«Mening farzandlarim tantiq bo'lmasliklari kerak! — derdi Amir Temur. — Tantiqlik irodasizlikni paydo qilgay. Farzandlarimni erkalaydigan yer kurash maydoni bo'lsin. Arg'umoq ila qilich uiaming jonajon do'sti, mardlik ularga ustoz bo'lsin!»

Mana shu niyatda jahongir avlodlarining jismoniy tarbiyasini itoatidagi eng tajribali va taniqli pahlavonlarga ishongan bo'lsa, farzandlarining ruhiy dunyosiga sayqal berishni oqila malika — asli ismi Saroymulxomm, xon avlodi bo'lgan, murg'aklikdan hukmfarmonlik va bahodirlikdan saboq olgan — Bibixonimga ishongan edi. Qolaversa, malika har doim safandayam, jangu jadaldayam va dofol-laltanatdayam hukmdorga hamroh, bo'lardi.

Yeti iqlimdan yig'ilgan san'at va adabiyot ahli tufayli durulsaltanat Samarqand havosida she'r va musiqa nafasi hukmron edi. Mana shu muhit, malika rahbarligidagi muallimlar sabog'ini olgan shahzodalar she'r va san'atgayaqin kishilar bo'lib voyagayetdilar. Xaziat Navoiy«o'z asatida yigirma ikki temuriy shadzoda (Halil Sulton, Mirzo Iflog'- bek, Boysunqomirzo, Abukjoeim Bobur, Sulton Mas'ud Shoh Barib Mirzo, Abdullatif Mirzo, Xusayn Boyqaro va boshqalar) she'r va musiqaga oshno bo'lgani tilgaohnadi.

O'rta Osiyoda ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlar tarixini o'rgangan har bir fuqaro o'zining bilim saviyasi, dunyo- qarashini o'stiribgina qolmasdan, balki o'zligini anglashga, haqiqiy vatanparvar bo'lib shakllanishga muyassar bo'lishi tabiiydir. Mana hozir mahallalarga juda katta e'tibor berilyapti. Mahallada hamma bir-birini biladi, bir-biriga ko'z-quloq, bo'lib yashaydi: Keksa oqsoqollar, bama'ni odamlarning yoshlaiga ta'siri hammamizga ma'lum. Har bir mahallada shunday odamlar borki, ularsiz na to'y, na ma'raka o'tadi. Shunday voqealarning guvohi ham bo'lamiz. Hatto janjallashib yoki kelisholmay turgan qo'ni-qo'shnilar «falonchi aka kelyapti» yoki «falonchi akani chaqirib kelish kerak» deyilsa, o'z-o'zidan jimib qolishadi. Shu ma'noda oiladagi kekxa ota- onaning fayzi beqiyos ekanligini ta'kidlash lozim. Bir necha oila bo'lib, bir qozondan ovqatlanish, ota-ona izmidan borib kam bo'lmagan farzandlar sonsiz-sanoqsiz. Lekin oxirgi paytlarda bitta otasi yoki onasini chiqishtirmagan, ularning «ortiqchaligi» sezilib qolayotgan oilalar uchramoqda, kekxa ota yoki onaning ko'zi tirikligida uyga ajoyib bir tarovat tarqatib turishini faqat ulardan judo bo'lgandan keyingina his qilinadi.

4. Ijtimoiy muxitning o'quvchi shaxsi rivojlanishiga ta'siri

Bola kamolotida ijtimoiy muxit ham muhimdir. Chunki ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar kishiga alohida ta'sir qiladi. Ijtimoiy aloqa, ya'ni insonlararo o'zaro munosabat natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi, kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi.

Inson kamolotiga ijtimoiy muhitning ta'siri turli tarixiy davrda (formatsiyalarda) turlicha bo'ladi, turli sotsial guruhlarga ham turlicha ta'sir etadi. SHunday ekan, hozirgi zamon pedagogika fani muhitga, uning inson rivojlanishidagi ta'sirining roliga alohida e'tibor beradi. Muhit tushunchasiga kiradigan ijtimoiy hayot voqealarining shaxsga ta'siri g'oyat muhim ekanligini ko'rsatadi va ijtimoiy muhit abadiy emas, o'zgaruvchan deb qaraydi. SHuning uchun muhit inson taqdirini belgilab beradigan omil deb hisoblanmaydi. Ammo uning ta'siri ham rad etilmaydi.

Tarbiya muhit kabi inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiyaning xususiyati shundaki, u aniq maqsadni ko'zlab, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirish yo'lida tarbiyachi rahbarligida muntazam amalga oshirib boriladi.

Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uning natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi.

Inson kamoloti irsiyat yo'li bilan orttirilgan va tabiiy layoqatlar bilan belgilanib qolmay, balki butun hayoti davrida uni qurshab olgan voqelik ta'sirida orttirgan xususiyat va sifatlar bilan ham belgilanadi.

SHubhasiz tarbiya odamning ko'zi, sochi, terisining rangiga, uning badani tuzilishiga ta'sir eta olmaydi, lekin jismoniy taraqqiyotga ta'sir etishi mumkin. Chunki maxsus tashkil etilgan jismoniy mashqlar orqali bolaning salomatligi mustahkamlanadi va chiniqtiriladi. Insonning tabiiy qobiliyati faqat tarbiya orqali, uni ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilish orqali rivojlanishi mumkin.

Ma'lumki, bola layoqatini rivojlantirish, uni qobiliyatga aylantirish va hayotga mos holda o'stirish uchun mehnatsevarlik va ishchanlik kerak. Mehnatsevarlik va muttasil o'tirib ishlash kabi fazilatlar faqat tarbiya natijasida orttiriladigan fazilatlaridir. Garchand inson kamolotiga ta'sir etadigan omillar bir qancha bo'lsa ham, lekin maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachi rahbarligida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni yetakchi hisoblanadi. CHunki, birinchidan, tarbiya ta'sirida turli fazilatlar o'zlashtiriladi va bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalar, malakalar ham maxsus uyushtirilgan tarbiya orqali hosil qilinadi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirib, shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko'rlar, gunglar ham o'qitilib, sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish yoki bartaraf qilish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. SHu tufayli, u shaxsning kamolga yetishini tezlashtiruvchi roly o'ynaydi. Inson kamol topishida maktabning ahamiyati katta. Bblalar maktabga qadam qo'yar ekan, ular o'quv mehnati bilan band bo'ladilar. Bolalar maktabda fan asoslarini egallash bilan birga, ularda sekin-asta ilmiy dunyoqarash shakllanib boradi. O'qituvchi-tarbiyachilarning rahbarligida insonga xos bo'lgan yuksak fazilatlarini egallaydilar. Tarbiyaviy ishlarni reja asosida tashkil etish, bolani tarbiyalashda oilaga har vaqt yordam ko'rsatadi. Tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchisining oilaviy sharoitidan xabardor bo'lishi, pedagogik maslahatlarga, yordamga muhtoj bo'lgan oilalarga yordam berishi muhim. Tarbiyachi uchun bola bo'sh vaqtini kimlar bilan va nimalar bilan mashg'ul bo'lib o'tkazayotgani ahamiyatsiz emas. CHunki o'z holiga tashlab qo'yilgan bola ko'chaning salbiy ta'siriga berilib ketishi mumkin.

Inson faqat faoliyatda rivojlanadi, undan tashqarida rivojlanish yo'q. Bola juda yoshligidan boshlaboq kattalar yordamida tashqi muhit bilan turli xil aloqada bo'ladi. Maktab yoshida bu aloqalar o'qish va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat bilan bog'lanadi va bular rivojlanish uchun manba sanaladi.

Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat shaxsning aqliy va irodaviy rivojlanishiga ta'sir etadi. Demak, bola ulg'aya borgan sari uning faoliyati ham shakli va mazmuni bilan hamohang o'zgarib boraverar ekan.

Masalan, bog'cha yoshida bolalarning asosiy faoliyat turi o'yin bo'lsa, maktab o'quvchisi uchun o'qib, mehnat qilish asosiy faoliyat bo'lib qoladi. Demak, bola hayotida faoliyat turlarining o'zaro munosabati ham o'zgaradi va buning ta'sirida bola kamoloti ham yangi, yuqoriroq bosqichga ko'tariladi.

Umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rahbarlik qilinmagan faoliyat esa bir yoqlama yoki salbiy ta'sir etishi mumkin.

SHunday qilib, inson taraqqiyotining ilmiy kontseptsiyasi inson kamolotiga ta'sir etadigan omillarni tahlil etib, inson kamoloti va uning shaxsini shakllantirishni yagona va bir butun jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Bu jarayonda insonning faolligiga katta o'rin beriladi. U faolligi bilan o'z shaxsini shakllantira oladi. Tarbiyachi tomonidan qo'yiladigan maqsad aniq bo'lsa va bu maqsadga erishish uchun odam astoydil harakat qilsa, kutilgan natijaga erishiladi.

Inson kamolotiga ta'sir etadigan omillardan yana biri bu muhitdir.

Muhit deganda kishiga hayajonli ta'sir etadigan tashqi voqealar majmuasi tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti kiradi. SHular bilan birga muhit-oila sharoiti ham katta ta'sir kuchiga ega. CHunki bola ko'z ochib ota-onasini, qarindosh urug'ini ko'radi. Bola kamolotida ijtimoiy muhit bo'lib hisoblanadi. CHunki bu yerda ishlab chiqish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar alohida ta'sir qiladi. Bu xil munosabat natijasida odam bolasi hyotga va tajriba va bilimlarini egallaydi. Inson kamolotida ijtimoiy muhitning ta'siri turli tarixiy davrda turlicha bo'ladi, turli sotsial guruhlarga ham turlicha ta'sir etadi.

Bizga ma'lumki komil inson shaxsni tarbiyalashda yuqoridagi omillardan tashqari yana bir omil ya'ni jamoaning roli ham katta hisoblanadi. CHunki jamoa har qanday bola tarbiyasini to'g'ri yo'lga soladi. Masalan, sinf jamoasini oladigan

bo'lsak, agar shu sinfda bir yomon ya'ni xulqi, tarbiyasi jihatdan yomon bulsa, shu sinf jamoasi uni asta-sekinlik bilan o'z ta'sirini albatta o'tkazadi. Ya'ni qanday yo'llar bilan degan savol tug'ilish mumkin.

Masalan, tadbirlar yoki sayohatlar orqali. Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning ahamiyati juda katta. Azal-azaldan bizgacha ota-bobolarimizdan qolgan o'lmas maqollarimizdan birini shu o'rinda keltirib o'tmoqchiman; «Aqlni beaqldan o'rgan», ushbu maqol zamirida bir qancha ma'nolar bor. Ya'ni jamoada har xil bolalar bo'lib, ular bir-biriga qarab ham o'zlaridagi yomon xulqlarni yuqotadilar. Bu xislatlar esa ularning komil inson bo'lib tayyorlanayotganidan darak beradi.

O'quvchilarning o'z-o'zini idora qilish organlari faoliyatida qatnashuvi ularning ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. Bu bolalar va o'smirlarning fuqarolik, demokratiya borasidagi tushunchalarini kengaytiradi,

O'z-o'zini idora qilish – tashabbuskorlik va mustaqillik maktabidir. O'quvchilar o'z-o'zini boshqaruvi o'quvchilar tomonidan fan va mashg'ulotlarning to'liq o'zlashtirilishiga, biror kasb o'rganishiga, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalanishiga, Vatan himoyachisi bo'lishiga maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda, Davlat, jamoat mulkini ko'z qorachig'iday asrashga, tabiatni muhofaza etishga ko'maklashadi.

O'z-o'zini boshqarish o'quvchilarni mustaqil hayotga, to'rmush va jamiyatga mos qilib tarbiyalash, ta'lim muassasasida ma'naviy muhitni saqlash ma'muriyatga qo'shimcha ta'lim olish uchun o'quvchilar talabnomasini shakllantirishda ko'maklashadi.

O'quvchilar o'z-o'zini boshqaruvi a'zolari maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan barcha tadbirlarda, tanlovlarda, xonalarni jihozlashda faol ishtirok etadilar.

Mazkur boshqaruv tashkilotchilik ishi ko'nikmalarini tarbiyalaydi, umumiy g'oyalari bilan ahil, jipslashgan o'quvchilar jamoasini tuzadi. O'quvchilar o'z-o'zini idora qilish tizimi maktab o'quvchilari (jamoasi) tomonidan o'zining faoliyatida demokratik faoliyat tarzlarini chuqur o'zlashtirish uchun qulay

sharoitlar yaratadi. Bu to'g'ri taqsimlash, ijro ustidan hisobot va nazoratni yo'lga qo'yish, harakatlar, tashabbuskorlikning uyg'unligini ta'minlash, musobaqalar uyushtirish, o'z zimmasiga mas'uliyat olish kabi ko'nikmalardan iborat. Tarbiyalanuvchilar davrimiz kishisi uchun zarur bo'lgan qator axloqiy sifatlarini, chunonchi, jamoat ishiga va unga qo'shadigan ulushi uchun shaxsiy mas'uliyat, jamoa manfaatlariga sodiqlik, o'zaro munosabatlarning qat'iylik, talabchanlik, jamoat tashabbusini qo'llab-quvvatlash kabi sifatlarini egallaydi.

Maktabda o'quvchilarning mustaqil faoliyati, barcha pedagogik jamoa bu ishga ma'naviy tayyor bo'lsagina o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro chuqur hurmat, xayrixodlik, ishonch bo'lgan sharoitdagina tashkil etilishi mumkin. Hech qanday soxtalik va sun'iylik bo'lmasligi kerak. Barcha o'z-o'zini idora qilish tashkilotlari o'z faoliyati yuzasidan vaqti-vaqtida hisobot berib turishi, so'z va ish birligi saqlanishi, har kim huquqlari va vazifalarini bajarishda ijtimoiy rag'batlantirilishi e'tiborda bo'lishi kerak. Bunda, albatta, bolalarning Respublika bolalar va o'smirlar uyushmalari bilan hamkorligi katta ahamiyatga egadir.

Xulosa

O`quvchi shaxsini shakllantirishda oila, maktab hamkorligini amalga oshirish uchun bir qancha uslublardan foydalanish mumkin.

Buning uchun avvalo oila va maktabda ta`lim va tarbiya sohasiga e`tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni, didektiv ko`rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, maktab hamkorligi faoliyati o`ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllarga ega bo`lishi zarur.

O`tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko`rgazmali, ta`sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo`nda, estetik jihatdan keng ko`lamli bo`la olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos bo`lishi lozim. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari "Sog'lom avlod uchun", "Ota-onangga hurmat", "Odobingga balli", "Sog' tanda sog'lom aql", "Mehr chashmasi", "Qizlar ibosi", "Bir yigitga qirq hunar oz", "O`g`lim posbonim", "Hayot-ustoz, xalq - muallim", "O`zbekiston Vatanim manim!", "Milliy burch va mas`uliyat", "Oila sabokdari", "Oila etikasi", "Oila tinch - mahalla tinch", "Mustaqil hayot bo`sag`asida", "Askarlik - yigitlik maktabi", "Oila baxti- Vatan baxti", "Sportchi oila", "Oilamiz ohanglari", "Vatan ostonadan boshlanadi", "Biz kimmiz" kabi tadbirlardan iborat bo`lishi mumkin.

O`quvchi shaxsini maktabga tayyorlashda ota-onaning kuchlari, asosan, o`qish jarayoni bilan bevosita bog`liq, malaka va ko`nikmalarga yo'naltiriladi. Ular birinchidan bolani diqqatini bir joyga jalb qilishni o`rganish kerakligi, ikkinchidan-uning bilimlarini to`ldirib, xotira, tafakkur va nutqini rivojlantirish kerakligi, uchinchidan — maktabga bo`lgan qiziqishini o`stirib borish kerakligini ta`kidlab aytishadi. Ba'zilar bolalarning irodaviy sifatlarini rag`batlantirish va mustahkamlash kerak deb hisoblashadi, ular bolaning qat`iyatli va tirishqoq bo`lishiga harakat qilishadi hamda bolada intizomni, harakatchanlikni shakllantirish, ya'ni uning butun xulqini shakllantirish. Qo'l amaliyotini rivojlantirish ham alohida bir qism bo`lib kiritilgan.

Ota-onalarning ko'pchiligi birinchi sinfga borishdan oldin bolaga o'qish va yozishni o'rgatish kerak emas deb hisoblashadi, chunki keyinchalik, bola maktabga borganda o'qishga qiziqishni yo'qotib qo'yish mumkin, darslarda bee'tibor bo'lishi mumkin. Ularning bolaga o'qish va yozishni o'lgatmasliklarining yana bir sababi - maktab talabalarini bilmay turib, noto'g'ri o'rgatib qo'yishdan xafvsirashadi (qo'rqishadi). O'qish va yozish bu faqat maktab faoliyat turlari va ularni o'rgatish maxsus tayyorlangan o'qituvchilar ostida amalga oshish kerak deb hisoblashadi.

Ota-onalarning boshqa bir guruhi bolaning maktabga borishdan oldin o'qish va yozishga o'rgatishga intiladilar. Ular bolaga maktab tomonidan qo'yilgan talablari va 1-sinfda o'qitish tempi juda baland va tez, shuning uchun oldindan olingan (o'zlashtirilgan) malakalar bolaga har qanday topshiriqlarni bajarishga yordam beradi va natijada, ortiqcha zo'riqishni oladi, deb asoslab berishadi

Shunday ota-onalar ham borki, ular bolani o'z shuhratparst niyatlarga o'lgatadilar: o'quv yili boshida ularning bolalari o'g tengdoehlaridan oshib o'tib (ilgari o'tab ketib) va shu tufayli endi shakllanayotgan kollektivda manfaatli o'mini egallaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., O'zbekiston. 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'Um to'g'ri- sida. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., Sharq, 1997. 20-30-b.
3. Kadriar tayyorlash Milliy dasturi. O'sha joyda. 32- 62-b.
4. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir». T., Sharq, 1997-y.
5. Karimov IA O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari taraqqiyot kafolatlari. T., Uz., 1997-y.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., Uzb. 1999-y.
7. I.A. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot - pirovard maqsadimiz. T., O'zbekiston. 2000. 8-tom.
8. Karimov IA."Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.:Ma'naviyat, 2008
9. Karimov I.A «Barkamol avlod orzusi». T., «O'zbekiston», 1998-y.
10. Karimov I.A «O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». T., «O'zbekiston», 1993-y.
11. Milliy istiqlol g'oyasi: asosida tushuncha va tamoyillar. T., O'zbekiston. 2001.
12. Munavvarov A.K. Pedagogika. T., O'qituvchi. 1996.
13. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. T., O'qituvchi. 1994.
14. Mavlonova R., Normurodova B., Rahmonqulova N. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. «Tib-kitob» nashriyoti Toshkent-2010
15. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. T., O'qituvchi. 2000.
16. Almetov N. Pedagogika. Savollar va javoblar. 2001.
17. To'rayeva O. «Oilaviy-hayot etikasi va psixologiyasi». T., «O'qituvchi», 1998-y.
18. Hasanboeva O. «Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya». T., 1998-y.
19. Otavaliyeva U. «Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi». T., 1994-y.
20. Munavvarov A «Oila pedagogikasi». T., «O'qituvchi» 1994-y.